



O'ZBEK TILIDA KO'PLIK IFODALANISHI (OT SO'Z TURKUMI MISOLLARI ASOSIDA)

ABRORXO'JA MUHAMMADOV

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp148-150>

Annotatsiya: O'zbek tilida birlik va ko'plik, ya'ni son kategoriyasining o'rganilish masalalariga, tahliliga bag'ishlanadi. Ko'plik ma'nolarining tuzilishi, mazmuni, vazifasi va qo'llanishini, o'zbek tili tarixida ko'plikning grammatik ko'rsatkichlari yozma manbalar asosida aniqlanishi, ko'plik ma'nosini ifodalovchi morfologiyaga doir ishlarda ot turkumida grammatik kategoriya sifatida o'rganildi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, affiks, ko'plik, birlik, son kategoriyasi, grammatika, til falsafasi, so'z turkumlari, mantiqiy va grammatik son, morfologik tuzilishi, affiksatsiya usuli va sintaktik usul.

KIRISH

O'zbek tilshunosligi mustaqillik yillarida katta odimlar bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, o'zbek tilini sistem asosida o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar salmog'i oshmoqda.

Tilning grammatik kategoriyalari va uning tarkibiy qismlari an'anaviy tilshunoslikda keng o'rganilgan, lekin uni sistem asosida o'rganishga e'tibor berilmay kelinmoqda. Ko'plik va jamlik kategoriyalarining til falsafasidagi xususiyatlari to'g'risida ham ilmiy qarashlar mavjud emas. Demak, ko'plikning ilmiy talqini, unga yangicha qarash masalalari hozirgi davrda maxsus tadqiqot ishini talab qilishi tabiiy hol bo'lib turibdi. Ma'lumki, grammatik son kategoriyasi jamlik ma'nosini ham o'zida birlashtiradi. Bu esa mazkur muammoni ko'plik – jamlik ziddiyatida maxsus o'rganishni taqozo qiladi. Ushbu hodisani o'zaro ziddiyatda o'rganish bu ikki lingvistik hodisaning tabiatini ochishga imkoniyat beradi. Ko'plik va jamlik ot turkumigagina xos emas, balki bu hodisalar grammatik sistemaning deyarli barcha qirralarida namoyon bo'la oladi va o'ziga xos sistemani tashkil etadi. O'zbek tilshunosligida bu muammoga muayyan darajada e'tibor qaratilgan, lekin u yangi talqinlarda o'rganilishi lozim. Ko'plik shakllarining ilmiy talqini amalga oshirish, uning jamlik bilan o'xshash va farqli xususiyatlarini belgilash ushbu ishning dolzarbligini tashkil etadi.

O'zbek tilida ko'plik ma'nosining ifodalanishiga doir tadqiqotlarda ot kategoriya talqini keng o'rin egallaydi.¹ Xususan ko'plikning **-lar** morfologik ko'rsatkic-

¹ G'ulomov A. O'zbek ilida ko'plik kategoriyasi. –T: Fan. 1994-56 b

hi orqali ifodalanishiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari asosiy qismni tashkil etadi.

O'zbek tilshunosligida ham son kategoriyasi tahliliga doir tadqiqotlarning ak-sariyati ko'plikni ifodalash turlariga bag'ishlangan. "O'zbek tiliga nisbatan "faqat birlikda ishlatiluvchi otlar", "faqat ko'plikda ishlatiluvchi otlar" haqida emas, balki **-lar** affiksini oluvchi va **-lar** olmaydigan otlar haqida, bularning o'z ichki ma'no gu-ruhlanishi haqida gapirish ma'qul.¹

-lar affiksining tarixiy kelib chiqishi va shakllanishi haqida turli qarashlar ham mavjud:

"-lar affiksining boshqa barcha funksiyalarini son kategoriyasi doirasida izohlash ham o'rinli emas. Son kategoriyasida beriladigan talqinlar orasidan -lar affiksining egalik va tuslovchi tarkibida qatnashuvini chiqarib tashlash lozim: bular son kate-goriyasining shakli emas, balki -lar ko'rsatkichining boshqa grammatik kategoriya-larning formalari tarkibida qatnashuvidir ².

Otlarning ko'plik shaklini yashash uchun **-lar** qo'shimchasi qo'shiladi. *Kiyim+lar, bola+lar, stol+lar*. **-lar** qo'shimchasini olgan ot birdan ortiq ekanini o'z o'zidan ifo-dalaydi. **-lar** qo'shimchasini quyidagi hollarda qo'shilganda u modal ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

1. Mavhum otlarga qo'shilganda.
2. Atoqli otlarga qo'shilganda
3. Inson tanasidagi asli bir dona bo'lgan predmetlar bildirgan so'zlarga qo'shil-ganda;
4. Donalab sanalmaydigan otlarga qo'shilganda;
5. Vaqt ma'nosidagi otlarga qo'shilganda;
6. Juft predmetni anglatgan otlarga qo'shilganda;
7. Aniq va mavhum otlarga qo'shib, hurmat, kuchaytiruv-ta'kid, izzat ma'nosi ifodalanganda.

Mavhum otlar (sevgi, iymon, baxt, omad), donalab sanalmaydigan predmetlami anglatuvchi otlar (un, suv, yog', guruch, mosh kabi), yakka bir predmetni angla-tuvchi otlar (til, bosh, yurak kabi). juft predmetni anglatuvchi otlar (ko'z. qosh, qo'l, etik. paypoq kabi), atoqli otlar (Munira. Toshkent. Buxoro kabi) kiradi. Ayrim hol-larda bu otlarga -lar ko'plik affiksi qo'shila oladi. Bunday holda -lar ko'plik ma'nosi-ni emas. balki quyidagi ma'nolarni ifodalab keladi: 1. Mavhum otlar, yakka bir pred-metni anglatuvchi otlar, juft predmetni anglatuvchi otlarda -lar affiksi qo'shilganda ma'noni kuchaytiradi yoki ta'kidlaydi: Kumushning qoshlari chimirildi (A.Qodiriy). 2. Donalab sanalmaydigan predmetni anglatuvchi otlarga -lar affiksi qo'shilganda, shu predmetning turi, navi, yoki mo'llik kabi ma'nomi bildiradi: Zilol suvlar, eram kabi bog'-u bo'stonlar (G'ayraty). 3. Atoqli otlarga qo'shilganda esa umumlashtirish, birgalik kabi ma'nolarni bildiradi: Saidalar kelishdi kabi. Shuningdek, qa-rindosh-urug'lik munosabatini bildiruvchi (ota, ona, buvi, aka, opa kabi) otlarga egalik qo'shimchasidan keyin **-lar** affiksi qo'shilganda, bu otlar hurmat ma'nosini anglatadi: otamlar, opamlar, buvimlar kabi. Lekin -lar egalik qo'shimchasidan oldin kelganda ko'plik ma'nosini bildiradi: opalarim, akalarim, amakilarim.

Otlarda ko'plik ma'nosi leksik ma'nosi ko'p predmetni bildiradigan otlar orqali ham anglashiladi. Bunday otlar birlik shaklida bo'lsa ham, bir turdagi predmetla-

¹ O'zbek tili grammatikasi I (Morfologiya). – T.: Fan 1975.-126 b

² O'zbek tili grammatikasi, 1975: 126-127

ming toʻdasini, jamini bildiradi: toʻda, gala, aholi, xalq, olomon kabi. Koʻplik maʼnosining bunday jamlovchi otlar orqali ifodalanishi leksik-semantik usul deyiladi. Bunday maʼnodagi otlarga grammatik jihatdan birlik shaklda (shaklan birlik, yaʼni -lar ishtirok etmaydi.), lekin semantik jihatdan koʻplikda deb qaraladi.

3. Otlarda koʻplik maʼnosi ot oldidan miqdor bildiruvchi ravishlar, sanoq sonlar, gumon olmoshlarini keltirish, soʻzlarni takrorlash bilan ham hosil qilinadi. Bu usul bilan koʻplik maʼnosining ifodalanishiga sintaktik usul deyiladi: koʻp bola, uchta kitob, bir necha qiz, dasta-dasta gul, toʻda-toʻda odam kabi.

Xulosa oʻrnida, oʻzbek tilida otlarning birlik koʻrsatkichi yoʻq. Koʻplik esa, asosan, morfologik usul, yaʼni -lar affiksi bilan ifodalanadi. Koʻplikni sintaktik usul bilan ham ifodalash mumkin: uch kishi, 5—6 ta odam kabi. Otga har 2 shaklni qoʻshib (4 ta kitoblar kabi) qoʻllash uslubiy xato hisoblanadi. Son kategoriyasi otlarning leksik-semantik guruhlanishi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, ushbu juftliklarning birinchi qismi — turdosh, aniq va yakka otlar birlikda ham, koʻplikda ham qoʻllana oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фитрат. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба. Биринчи китоб: Сарф. Танланган асарлар. V жилдлик. -Тошкент: Маънавият, 2006. -IV жилд. -Б. 140-175.
2. Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-мидор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол.фан.номз.дисс.-Самарқанд,2004. 13463.
- Sayfullayeva R.,Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili / Darslik. – Toshkent: Universitet, 2010. -335
4. H.Jamolxonov. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T., 2005
5. M.Mirzayev, C.Usmonov, I.Rasulov. Oʻzbek tili. T.,1978 Oʻzbek tili leksikologiyasi. T., 1981.
6. B.Mengliyev, Oʻ. Xoliyorov. Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. T., 2007
7. Neʼmatov H., Rasulov R. Oʻzbek tili system leksikologiyasi asoslari. T., 1995.
8. Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. T., 1996
9. Qilichev E. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Buxoro, 2001
10. S.Rahimov, B.Umurqulov, A.Eshonqulova. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T., 2001
11. S.Rahimov, B.Umurqulov. Hozirgi oʻzbek tili. T., 2003.
- 12.Gʻulomov A. Oʻzbek ilida koʻplik kategoriyasi. -T: Fan. 1994-56 b
- 13.Oʻzbek tili gramatikasi I (Morfologiya). – T.: Fan 1975.-126 b
14. M.Hamroyev, D.Muhammedova va b. Ona tili -Toshkent 2007- 85b
- 15.Dildoraxon Abdullayeva. Turkiy xalqlar adabiyoti , Toshkent-2014.
- 16.UchqunoʻgʻliS.E.etal.OʻZBEKTILSHUNOSLIGIDASONKATEGORIYALARINING OʻRGANILISHI //TAʼLIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 6. – C. 1-7.
- 17.Abdullayeva O. O. Q., Oʻgʻli T. D. R. OTLARDA KOʻPLIK SHAKLINING OʻRGANILISH TARIXIGA OID NAZARIY QARASHLARNING UMUMIYLIGI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 4. – C. 140-142.